

XORAZM VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Matchanova A.E.

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Аннотация: В статье рассматриваются географические аспекты и потенциал развития религиозного туризма в Хорезмской области. Даны рекомендации по размещению объектов паломничества, возможностям развития.

Ключевые слова: религиозный туризм, паломнический туризм, святыни, мавзолеи, туристы.

Abstract: The article explores the geographical aspects and potential of the development of religious tourism in the Khorezm region. Recommendations are given on the location of pilgrimage sites, development opportunities.

Key words: religious tourism, pilgrimage tourism, holy steps, mausoleums, tourists.

Turizm millatlarni bir – biriga yaqinlashtiradigan, turli davrlarda, turli xildagi xalqlarning madaniyati, dini, e'tiqodi, tarixi, tabiatini o'rganadigan, shuningdek insonlarning xordiq chiqarib davolanishlarini ta'minlabgina qolmay, balki iqtisodiyotning o'sish darajasini tezlashtirishga xizmat qiladigan tarmoq sifatida shakllanib bormoqda.

Turizm turlari orasida diniy turizm alohida ajralib turadi. Diniy turizm rivojlanishining geografik jihatlarini ilmiy tadqiq etishda geograf olimlarning xissasi katta. Diniy turizm ziyorat turizmidan ko'ra birmuncha keng soha bo'lib, ziyorat turizmi uning o'z maqsadi bilan ajralib turadigan bir turi hisoblanadi.

Xorazm viloyati ziyoratgohlarining ko'pchilik qismi qadimiy Xiva shahri va uning atrofida joylashgan. Viloyatda 48 ta ziyorat ob'ektlari mavjud. Ularni 46 tasi islomiy, 2 tasi xristianlik (Urganch shahri va Xazorasp shaharchasida joylashgan).

Xorazm viloyatida diniy turizm xususiyatlarini o'rganish imkoniyatlari kattaligining sababi, ushbu viloyat hududi qadimda avliyo, ulamolar yashaydigan o'lkalardan biri bo'lganligi, hamda Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligidadir. Xorazm viloyatidagi muqaddas qadamjolarini xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi qadamjolarga ajratish mumkin. Xalqaro ahamiyatdagi qadamjolarga dunyoning turli burchaklaridan, ayniqsa musulmon dunyosi mamlakatlaridan ko'plab sayyohlar ziyorat qilish uchun kelishadi. Mahalliy qadamjolarga, Respublikamizning turli viloyatlari va tumanlaridan hamda mahalliy aholi tomonidan ziyorat qilinadigan joylar kiradi.

Har kuni viloyatimizga turli viloyat hamda tumanlarimizdan qadamjolarini ziyorat qilish uchun yuzlab sayyohlar tashrif buyurishadi. Bu esa diniy turizm viloyatimizda yanada rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Muqaddas qadamjolar aholini ekologik ruhda tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, kelajakda Xorazm viloyatida muqaddas qadamjolarini o'rganish ilmiy ahamiyatga

ega. Shu jumladan, mintaqada muqaddas qadamjoldan Xoja Yusuf Hamadoniy yodgorligi Shovot tumani Beshmergan qishlog'ida joylashgan. Yodgorlikda uch buyuk avliyo Xo'ja Yusuf Hamadoniy, Xo'ja Abdulqodir Giloniy va Xo'ja Sayid Ali Hamadoniy ziyoratgohlari joylashgan. Mazkur joy azaldan ziyoratgoh bo'lib, har yili ommaviy xalq sayillari tashkil qilingan. Bu yerga ihlos bilan kelgan xastalar dardiga shifo topgan. Hozirgi kunda yodgorlik oldida ruhiy kasallar davolanishi uchun chillaxonalar mavjud. Shunday ekan, Ho'ja Yusuf Hamadoniy yodgorligida obe'ktlarni tarqoq joylashganligini hisobga olib, transport infratuzilmasini yaxshilash, shu jumladan, hunarmandlar do'konlari, savdo, umumiy ovqatlanish tarmoqlari, sayyohlar uchun piyodalar tunellarini o'tkazish, marshrutlar tashkil qilish kelayotgan ziyoratchilar sonini yanada oshirish va ularga qulaylik yaratish zarur.

Shayx Muxtor valiy" maqbarasi "Ostonabuva qabristoni" deb ataluvchi ushbu mashhur va qadimiy maqbara - Yangiariq tumani Ostona qishlog'ida joylashgan. Maqbara 1287 yilda vafot etgan taniqli Xorazm Shayxi nomiga Usta Zayniddin ibn Odina Muhammad tomonidan qurilgan. Rivoyatlarda bu qadamjo Makka shahridagi Ka'batullohning "Ostonasi", ya'ni mukarram joy ekanligi aytilgan. Bu erda sayyohlar uchun sharoit yaratish maqsadida hudud salohiyatini o'rganib, maqbara va uning atrofini obodonlashtirish va zamonaviy tipdagi sanitariya-gigiena shaxobchalari faoliyatini yo'lga qo'yib, maqbaraga yetib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish; maqbara atrofida maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini (savdo burchaklari, va ovqatlanish punktlari hojatxona va boshqalar) ni tashkil etish zarur.

Sayid Mohi Ro'yi Johon majmuasi – Xivadagi me'moriy yodgorlik (1884). Said Muhammad Maxruijon maqbarasi atrofida barpo etilgan Madrasa, qorixona, maqbaradan iborat majmua. Xiva shahrining shimoliy qismida joylashgan sayid A'loaddin xo'ja eshon nomli (shu bugungi kunlarimizgacha Chodirli eshon deb nomlangan) ko'hna qabriston yaqinida Sirchali ariq bo'yida Qalandarxona yonida Qo'ng'iro't sulolasi vakillarining bir talay qabrlari, shu qabrlarga atab qurilgan mahsura, maqbara, madrasa va masjidlar bugungi kunlarimizgacha o'z ulug'vorligini yo'qotmay shahrimizga ko'rk bag'ishlab turibdi. Shundan ko'rinib turibdiki, Xiva shahridagi Sayid Mohiro'yijahon majmuasi o'z davrining mahobatli inshootlaridan biri bo'lgan, hozirgi kunlarimizda ushbu aziz maskan ta'mirlanmoqda va kelajakda mahalliy va chet ellik sayyohlarning qadam ranjida qiladigan joyiga aylanadi.

2500 yildan ortiq tarixga ega Xiva shahri o'z bag'rida ulug' zotlar, din ulamolari, olimu mutafakkirlar, kasb-kor, hunarmandchilik pirlari singari yuzlab avliyolarni o'z bag'riga olgan. Shaharning jamiki avliyolari jam bo'lgan Xiva "2024 yil Islom dunyosining poytaxti qilib" e'tirof etilishi islom olamidagi jahoniy shuhratini yanada oshirish hamda hududda ziyorat turizmini keng rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xorazmni jahon hamjamiyatida ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e'tirof etilishi umumiy ma'noda mamlakatda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va turistlar oqimini sezilarli darajada oshirishga turtki beradi. Ziyorat turizmi uchun

diniy qadamjolarining o‘zi etarli emas. Sayyohlarni jalb qilish uchun targ‘ibot ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilishi, qulay viza tartibi, aeroport, mehmonxonalarda ibodat amallarini bajarish uchun shart-sharoit bo‘lishi kerak. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun zarur infratuzilma ob'ektlari – mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, mehmonxonalar, aeroport va vokzallarda mehmonlarni kutish zallarining ziyorat turizmi standartlariga javob berishi masalalarini hal etish zarur. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish omillaridan bo‘lgan axborot resurslarini jamlash, mamlakatda mavjud ma'naviy va moddiy boyliklar tavsifini umumlashtirish, ziyorat turizmi bo‘yicha to‘liq ma'lumot beruvchi integrasion elektron platformani yaratish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ota bobolarimizning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, diniy ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy muqaddas ziyoratgahlar va yodgorliklar zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma‘no mujassam. Zero, muqaddas ziyoratgohlar inson ijtimoiy hayotini o‘zgartiruvchi yagona moddiy manba hisoblanadi.

Shunday ekan, islom dini rivojiga hissa qo‘shgan vatandoshlarimiz haqida risolalar yozilib, ziyoratgohlarni o‘zaro bog‘laydigan yo‘llar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy infratuzilmalar shakllantirilib, muhtasham madaniy obyektlar qurilib, transport-logistika, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash ishlari amalga oshirilib, yangi marshrutlar yolga qo‘yilsa, muqaddas qadamjolari ham shaklan, ham mazmunan kompleks qiyofa kasb etadi va ularni ziyorat qilish ko‘hna Xorazmning yangi “tashrif qog‘ozi”ga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova Z K Xorazm voxasi ziyoratgohlari va qadamjolari (Tarixiy etnologik tadqiqot). Tarix fanlari boyicha falsafa doktori diss..avtoref - T 2018 42 b .
2. To‘rayev .Q.T O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy geografik asoslari .Avtoreferat .diss . Geografiya fanlari boyicha falsafa doktori .T 2022.